

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Nozimbekova Shaxlo Xamidullayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20078059>

Annotatsiya: Ushbu tezisda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sish sur'atlarini saqlash va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, natijalar samaradorligi kabilar yoritilgan

Kalit so'zlar: Makroiqtisodiyot, yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya, fiskal siyosat, monetar siyosat, davlat qarzi, investitsiya, diversifikatsiya, barqaror o'sish, iqtisodiy islohotlar, byudjet defitsiti, eksport, valyuta kursi, tarkibiy o'zgarishlar, raqobatbardoshlik, sanoat, xizmatlar, agrar sektor, xususiy tadbirkorlik, Markaziy bank.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda har qanday davlatning iqtisodiy xavfsizligi va aholi farovonligi bevosita makroiqtisodiy barqarorlik darajasi bilan belgilanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik — bu iqtisodiyotdagi ichki va tashqi muvozanatning saqlanishi bo'lib, u past inflyatsiya darajasi, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari, to'lov balansi mutanosibligi va bandlikning yuqori darajasini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyotining yangi bosqichida iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlarini joriy etish orqali yuqori sur'atlarni ta'minlashni asosiy maqsad qilib qo'ygan. Global iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy ziddiyatlar va energiya resurslari narxining tebranishi sharoitida milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash murakkab vazifaga aylanmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "O'zbekiston-2030" strategiyasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognoz darajasida saqlash iqtisodiy islohotlarning poydevori sifatida ko'riladi. Barqaror iqtisodiyot nafaqat bugungi kun ehtiyojlarini qondirish, balki kelajak avlodlar uchun mustahkam moliyaviy-iqtisodiy zamin yaratish demakdir. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun birinchi navbatda narxlar barqarorligini ta'minlash zarur. Inflyatsiya darajasining pasayishi aholining real daromadlarini himoya qiladi va investitsiya muhitini yaxshilaydi. Ikkinchi muhim yo'nalish bu fiskal intizomdir. Byudjet taqchilligini jilovlash va davlat qarzining me'yoriy darajada bo'lishini ta'minlash mamlakatning tashqi qarzlarga bo'lgan qaramligini kamaytiradi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, makroiqtisodiy barqarorlik faqatgina pul-kredit siyosati bilan emas, balki chuqur tarkibiy islohotlar bilan hamohang olib borilishi kerak. Davlat aktivlarini xususiylashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish va raqobatni rivojlantirish milliy iqtisodiyotning tashqi shoklarga (zarbalarga) chidamliligini oshiradi. Mazkur tezisda O'zbekistonning so'nggi yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, barqaror rivojlanishning strategik yo'nalishlari yoritiladi. Bu jarayonda investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini kengaytirish masalalari markaziy o'rin egallaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda tashqi noaniqliklarga qaramasdan barqaror o'sish dinamikasini namoyish etmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi 1 849 650 mlrd so'mni tashlik etdi. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yuqori natijalardan biri hisoblanadi. Makroiqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'sishning asosiy drayverlari sifatida sanoat (1 101 130.8), xizmatlar ko'rsatish (1 050 292.5) va qishloq xo'jaligi (538 919.7) sohalari tashkil qildi. Shuni ta'kidlash joizki,

iqtisodiy barqarorlikka erishishda hududiy rivojlanish ham muhim ahamiyatga ega. "Mahallabay" tizimi orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ishsizlik darajasini 8 foizdan pastga tushirishga yordam berdi. Biroq, iqtisodiyot oldida hali ham yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, energetika tizimidagi taqchilikni bartaraf etish va logistika xarajatlarini pasaytirish kabi dolzarb masalalar turibdi. Kelgusi yillarda makroiqtisodiy muvozanatni saqlash uchun raqamli iqtisodiyotga o'tish va "yashil" energetika ulushini oshirish ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash shunchaki statistik ko'rsatkichlar emas, balki iqtisodiy xavfsizlikning fundamental kafolatidir. O'zbekiston misolida ko'rib chiqilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, inflyatsiya darajasini jilovlash, byudjet intizomini saqlash va investitsiya muhitini yaxshilash barqaror o'sish drayverlaridir. Kelajakda makroiqtisodiy muvozanatni saqlab qolish uchun iqtisodiyotni raqamlashtirish, "yashil" energetika loyihalarini qo'llab-quvvatlash va tashqi qarzlarni samarali boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Faqatgina tarkibiy islohotlar va bozor institutlarining mustahkamlanishi orqali milliy iqtisodiyotning tashqi global inqirozlarga chidamliligini oshirish va aholi turmush darajasini izchil ko'tarishga erishish mumkin. Strategik maqsadlarga erishish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Makroiqtisodiy tahlil va pul-kredit siyosati sharhi*. Markaziy bank nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). *"O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida* (PF-158-son). Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati: statistik to'plam*. Stat.uz.
4. Abdurahmonov, Q. X. (2022). *Inson taraqqiyoti iqtisodiyoti*. Fan va texnologiya nashriyoti.
5. International Monetary Fund. (2023). *Republic of Uzbekistan: Staff report for the 2023 Article IV consultation*. IMF Country Reports.
6. World Bank. (2023). *Uzbekistan economic monitor: Navigating global headwinds*. World Bank Group.
7. Vahobov, A., & Jumaev, N. (2021). *Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish*. Iqtisod-Moliya nashriyoti.